

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZONIMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI

Odina Olim qizi Xoshimova

2-kurs tayanch-doktorant

ABSTRACT

Zoonimik frazeologik birliklarni o‘zida mujassm etgan izohli lug‘atga muayyan so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan iboralar kiritiladi (chunki ular ham, umuman olganda, lug‘aviy birlik hisoblanadi). Masalan, „sher“ yoki „yurak“, „inson“ so‘zlari uchun tuzilgan lug‘at maqolasidan birida „sheryurak inson“ iborasi ham beriladi, ma‘nosi belgilanib qayd etiladi va izohlanadi. Lingvistik lug‘atlarning boshqa turlarida ham (terminologik, tarjima lug‘atlarida) ularga kiritilgan lug‘aviy birliklarning, ya‘ni so‘z va turg‘un birikmalarning ma‘nosi (ma‘nolari) belgilanishi qayd etilishi va izohlanishi mumkin. Bunday lug‘atlar ham ana shu xususiyati bilan izohli lug‘atlar qatoriga kiradi.

Kalit so‘zlar: zoonimik frazeologiya, lingvistik lug‘atlar, turg‘un birikma, leksikografiya, izohli lug‘atlar.

KIRISH

O‘zbek va ingliz tillarida zoonimik frazeologik birliklarni izohli lug‘atlarda berilishi haqida tahlil etishdan avval uning ta‘rif va tasniflariga e‘tibor qaratilishi joiz. Zero, bu turdagi izohli lug‘atlarning yaratilishi leksikografik tartib-qoidalar, me‘yorlarga asoslanadi. Leksikografiya - (leksik va grafiya) – lug‘atlar tuzish va amaliy lug‘atchiliklarni o‘z ichiga oladi. Amaliy lug‘atchilik nafaqat lug‘atlar tuzish bilan balki bir qator ijtimoiy muhim vazifalarni ham bajaradi: o‘z va o‘zga tillarni o‘rganish; ona tilini tavsiflash va me‘yorlashtirish (izohli, imlo va boshqa turdagi izohlar yordamida); tillararo aloqa munosabatini ta‘minlash (ikki va ko‘p tilli lug‘atlar, so‘zlashgichlar); muayyan til leksikani ilmiy o‘rganish (etimologik, tarixiy lug‘atlar) va boshqalar.

Lug‘at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tiliga mansub) so‘zning qanday ma‘no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan. Dastlabki tuzilgan lug‘atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo‘lgan (lug‘atlarning turli shakllari, ko‘rinishlari keyingi davrlarda paydo bo‘lgan). Lug‘atlar bu har bir sohani tayanch atamalarini izohlab, ma‘nosini konkretlashtirib turuvchi manbadir. Shu ma‘noda lug‘atlar tavsiflanadi.

Asosiy qism.

Leksikografiya ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurulishi haqidagi ta’limotga suyanganda holda ish ko’radi. Zamonaviy leksikografiya muayyan davr jamiyatidagi bilimlar majmuini aks ettiruvchi lug’atlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etadi. Leksikografiya lug’atlar tipologiyasini ishlab chiqishda ahamiyatlidir. Shu jihatdan bir tilli leksikografiya (izohli va boshqa lug’atlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lug’atlar), o’quv leksikografiyasi (til o’rganishga maxsuslashgan lug’atlar), ilmiy-texnik leksikografiya (terminologik lug’atlar) o’zaro farqlanadi. Albatta, ilg’or texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan yangi g’arb leksikografiyasi, jumladan, ingliz tili lug’atchiligi bilan qiyoslaganda hozirgi o’zbek leksikografiyasi sohadagi yangi tendensiyalarni endi o’zlashtirmoqda. [1.98] O’zbek va ingliz frazeologik tilshunosligida, xususan, leksikografiyasida xilma xil lug’atlar tuzish borasida kattagina yutuqlarga erishilganligi ushbu tadqiqot ishimizni boyitishda katta ahamiyatlidir. XX asring 30-yillaridan keyin tuzilgan ikki tilli (ruscha-o’zbekcha), 80-yillarda yuzaga kelgan bir tilli (izohli) lug’atlari shular jumlasidandir.

Izohli lug’at — [lingvistik lug’at](#) turlaridan biri. Unda, birinchidan, lug’atga kiritilgan har bir so’zning (bosh so’zning) ma’nosi, ko’p ma’noli bo’lsa, ma’nolari belgilanadi va qayd etiladi. Ikkinchidan, bu ma’no (ma’nolar) izohlanadi, ya’ni tushuntiriladi — tavsifiy yo’l bilan qayd etiladi. Xuddi shu xususiyatiga ko’ra „Izohli lug’at“ deb ataladi.

Zoonimik izohli lug’atga ham muayyan so’z ishtirokida hosil bo’lgan iboralar kiritilishi mumkin (chunki ular ham, umuman olganda, lug’aviy birlik hisoblanadi). Masalan, „sher“ yoki „yurak“, „inson“ so’zlari uchun tuzilgan lug’at maqolasidan birida „sheryurak inson“ iborasi ham beriladi, ma’nosi belgilanib qayd etiladi va izohlanadi. Lingvistik lug’atlarning boshqa turlarida ham (terminologik, tarjima lug’atlarida) ularga kiritilgan lug’aviy birliklarning, ya’ni so’z va turg’un birikmalarning ma’nosi (ma’nolari) belgilanishi qayd etilishi va izohlanishi mumkin. Bunday lug’atlar ham ana shu xususiyati bilan izohli lug’atlar qatoriga kiradi. Ular, odatda, lingvistik lug’atning qaysi turiga mansubligiga va izohli ekaniga ko’ra nomlanadi. Masalan: “O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati”, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati” va boshqalar [6.1]

Frazeologik birliklar, shuningdek, zoonimik tarkibiy elementga ega atamalar butun dunyo bo’ylab yaratilgan. Bu esa til mavjudligini, shu bilan o’tmishdagi voqealarni o’rganish va hozirgisi bilan bog’lanish imkonini beradi. Ular ko’pincha metaforik tabiatga ega, chunki ular qisman yoki butunlay metaforaga aylanadi; bundan tashqari, ularning ko’plarining ma’nolari metaforaga yo’naltiradi. Ingliz tilida *cat, dog bull, horse, pig, monkey, fish, donkey, snake* kabi

zoonimlar va ularning birikmalari birikkan frazeologik birliklar hisoblanadi. [4.64] Masalan, ingliz tilida qurilish sanoatida buldozerlar ulkan mashinalarni ifodalagani sababli "*like a bull in a china shop*" idiomasi katta hayvon tasviri sifatida ishlatiladi.

Muhokama

Mustaqillik davrida tilimizning frazeologik boyligini to'la qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Masalan, Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» (1992), M.Sodiqovanning «Qisqacha ruscha o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati» (1994), Mahmud Sattorning «O'zbekning gapi qiziq» (1994), B.Yo'ldoshev, K.Bozorboyevning «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» (1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning «Ma'nolar mahzani» (2001) singari leksikografik asarlarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin. 1992 yilda Sh.Rahmatullayev tomonidan nashr etilgan «O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi» nomli monografiyasi ushbu sohada yaratilgan dastlabki tadqiqot natijalaridan biri hisoblanadi.[2.56] Unda frazeologizmlarning semantik strukturasi alohida ta'rif berilgan bo'lib, ularni o'zaro darajasiga qarab izohlab bergan. Masalan, ta'bi hira, dili siyoh, bag'ri qon iboralar umumiy ma'noda bir xillikni kasb etadi. Lekin ularning o'zaro ma'no darajasining kuchliligi yoki pastligiga qarab farqlash mumkin. Ya'ni ular umumiy ma'noda bitta «xafalik» ma'nosini ifodalaydi, ammo ta'bi hira iborasi bir oz degan ma'noda qo'llansa, undan yuqoriroq daraja uchun dili siyoh iborasi ishlatiladi. Eng yuqori bosqich ma'nosida bag'ri qon iborasi ishlatiladi. Sh.Rahmatullayev o'z monografiyasida bu iboralarga nisbatan quyidagicha fikr bildirgan: "...ta'b/i/ xira frazemasini «kayfiyati bir oz yomon holatda» ma'nosini anglatadi, dil/i/ siyoh frazemasini «ruhiyati yomon» ma'nosini, bag'r/i/ qon frazemasini esa «g'am-alam, iztirob bilan to'lib-toshgan» ma'nosini anglatadi. Ma'nodagi bu qadar katta farqlanish yuqoridagi uch frazema o'zaro sinonim emasligini ko'rsatadi. Asli ma'nodagi bunday farqlanishni «emotsiyaning kuchli-kuchsiz darajada kechishi» semasi deb emas, balki «ma'no gradatsiyasi» semasi deb nomlash to'g'riroq»[3.76]. Frazeologizmlar mavzusi faqatgina lug'atlar, monografiya chiqarish yoki o'quv qo'llanmalar chiqarish bilan cheklanib qolgani yo'q. Ushbu mavzu doirasida bir qator nomzodlik dissertatsiyalari yozilgan. Masalan, Boltayeva Barno Isakulovna tomonidan 2019-yilda «O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil)» mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorligini olish uchun dissertatsiyasi yoqlandi.

Bekmurod Yo'ldoshev tomonidan 1993-yilda «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari» mavzusida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlangan. Ushbu dissertatsiyada frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, uning ahamiyati, sovet davrida qay darajada o'rganilganligi, shu jumladan uni

o‘rganish qaysi davrlarni o‘z ichiga olishi haqida keng tushunchalar berib borilgan. B.Yo‘ldoshev dissertasiyasida frazeologizm fani tarixini xronologik jihatdan quyidagi 3 davrga bo‘lish mumkinligi aytib o‘tgan:

1) Birinchi davr: XVIII asr o‘rtalaridan to XX asr 30-yillarigacha;

2) Ikkinchi davr: XX asrning 30-50-yillarigacha;

3) Uchinchi davr: XX asr 60-yillaridan to mustaqillikning dastlabki davrigacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Yuqorida ta’kidlab o‘tgan olimlarimiz o‘zbek tili frazeologiyasining deyarli hamma tomonlarini ochib berishgan. Mazkur ishlar qatorida iboralarning grammatik tavsifiga doir ham ko‘plab ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shular qatorida o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi iboralarning grammatik tavsifiga to‘xtalib o‘tsak. Sh.Rahmatullayev o‘zining “Nutqimiz ko‘rki” asarida iboralarga munosabatini quyidagicha aniq bayon qiladi. “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilish jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatuvchi lug‘aviy birlikka ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Bu o‘rinda “lug‘aviy birlik” deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, “bittadan ortiq” deb ta’kidlash bilan sodda so‘zlardan, “leksik negizlar” deb ta’kidlash bilan analitik formadan, “birikma, gapga teng” deb ta’kidlash bilan qo‘shma so‘zdan, “yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no” deb ta’kidlash bilan to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmadan farqlaymiz”. Iboralarning grammatik tarkibi kamida ikki yoki undan ortiq leksemalardan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Дадабоев Х. Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси модули бўйича ўқув-услубий мажмуа – Тошкент: Университет. 2016 – 98 б.
2. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki // —Fanl nashriyoti, Toshkent-1970. B-56
3. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun) Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007
4. Rogova G. V. Methods of teaching English.-L.: «Просвещение», 1975, 64.
5. OALD dictionary. Oxford university press
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Izohli_lug%CA%BBat#:~:text=Izohli%20lug%CA%BBat%20%E2%80%94%20lingvistik%20lug%CA%BBat%20turlaridan,tavsifiy%20yo%CA%BB1%20bilan%20qayd%20etiladi.